

**“Navoiyazot” AJ
Yagona aksiyadorining
2026-yil 09-apreldagi
78-son qaroriga muvofiq
“TASDIQLANGAN”**

**“NAVOIYAZOT” AJ
KUZATUV KENGASHI TO‘G‘RISIDAGI
N I Z O M
(Y A N G I T A H R I R)**

Navoiy-2026

**“APPROVED”
By Resolution No. 78
of the Sole Shareholder
of JSC “Navoiyazot”
dated April 09, 2026**

**REGULATION ON THE SUPERVISORY
BOARD OF NAVOIYAZOT JSC
(NEW EDITION)**

Navoi-2026

O'zbek tilida	in English
<p style="text-align: center;">I. Umumiy qoidalar</p>	<p style="text-align: center;">I. General rules</p>
<p>1.1. Ushbu nizom O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga, Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasi yig'ilishlarining bayonnomalari bilan (11.02.2016-y. 02-02/1-187-son), (27.04.2018-y. 24/1-989-son) tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksi va Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalarining tavsiyalariga va "Navoiyazot" AJ (matn bo'yicha Jamiyat) Ustaviga hamda 2024-yil 25-noyabrda "UzAssets" AJ tomonidan tasdiqlangan Kuzatuv kengashlari faoliyatini rejalashtirish tartibiga muvofiq ishlab chiqilgan hamda Jamiyat kuzatuv kengashi maqomini, funksiyalarini, huquqlarini (vakolatlarini) hamda majburiyatlarini, uning a'zolarini saylash va ularni ishlash tartibini belgilab beradi.</p>	<p>1.1 This Regulation has been developed in accordance with the Law of the Republic of Uzbekistan "On Joint-Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights", the Corporate Governance Code approved by the minutes of meetings of the Commission for Increasing the Efficiency of Joint-Stock Companies and Improving the Corporate Governance System (No. 02-02/1-187 dated 11 February 2016 and No. 24/1-989 dated 27 April 2018), the Recommendations of the Corporate Governance Rules for Enterprises with State Participation, the Charter of "Navoiyazot" JSC (hereinafter referred to as the <i>Society</i>), as well as the Procedure for Planning the Activities of Supervisory Boards approved by UzAssets JSC on 25 November 2024.</p> <p>This Regulation defines the status, functions, rights (powers) and obligations of the Society's Supervisory Board, as well as the procedure for election of its members and the organization of their activities.</p>
<p style="text-align: center;">II. Kuzatuv kengashining vakolat doirasi</p>	<p style="text-align: center;">II. Powers of the Supervisory Board</p>
<p>2.1. Jamiyat Kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, amaldagi qonunchilik va Jamiyat Ustavi bilan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno, jamiyat ichki nazorat organlari, jamiyatda tashkil etilgan kollegial organlar faoliyatini muvofiqlashtiradi va zarur hollarda jamiyatni rivojlantirish rejalarini tashkil etish va ularda belgilangan maqsadlarga erishishni monitoring qilish uchun mutaxassislarni jalb etadi.</p>	<p>2.1. The Supervisory Board of the Society provides overall governance of the Society's activities, except for matters falling within the competence of the General Meeting of Shareholders in accordance with the applicable legislation and the Society's Charter.</p> <p>The Supervisory Board coordinates the activities of the Society's internal control bodies and other collegial bodies established within the Society and, where necessary, engages specialists to develop and implement the Society's development plans and to monitor the achievement of the objectives set therein.</p>
<p>2.2. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning 75-moddasida hamda Jamiyat Ustavida ko'rsatilgan vakolatlar kiradi.</p>	<p>2.2. The scope of authority of the Supervisory Board of the Society shall include the powers set forth in Article 75 of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Joint-Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights", as well as those provided for in the Charter of the Society.</p>
<p>2.3. Jamiyat Kuzatuv kengashi qonun hujjatlarida belgilangan korporativ normalariga rioya qilgan holda aksiyadorlarning har yilgi umumiy yig'ilishlarida hisobot beradi.</p>	<p>2.3. The Supervisory Board of the Society shall report to the Annual General Meeting of Shareholders in compliance with the corporate governance requirements established by applicable law.</p>
<p>2.4. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Jamiyatning ijro organiga o'tkazilishi mumkin emas.</p>	<p>2.4. Matters falling within the competence of the Supervisory Board of the Society may not be delegated to the Executive Body of the Society.</p>

<p>2.5. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolariga ular o'z vazifalarini bajarib turgan davr uchun haq to'lanishi va/yoki kuzatuv kengashining a'zosi vazifalarini bajarish bilan bog'liq xarajatlarining o'rni qoplanishi mumkin.</p>	<p>2.5. By decision of the General Meeting of Shareholders, members of the Supervisory Board of the Society may be paid remuneration for the period during which they perform their duties and/or reimbursed for expenses incurred in connection with the performance of their duties as members of the Supervisory Board.</p>
<p>III. Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash</p>	<p>III. Election of Members of the Supervisory Board</p>
<p>3.1. Kuzatuv kengashining miqdoriy tarkibi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, jamiyatning Ustavi bilan belgilanadi, qonun hujjatlarida belgilangan miqdordan kam bo'lishi mumkin emas va jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilish qaroriga ko'ra o'zgartirilishi mumkin.</p>	<p>3.1. The number of members of the Supervisory Board shall be determined by the General Meeting of Shareholders and the Charter of the Society, shall not be less than the minimum number established by law, and may be changed by a decision of the General Meeting of Shareholders of the Society.</p>
<p>3.2. Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari qonunchilikda va Jamiyat Ustavida nazarda tutilgan tartibda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan 3 (uch) yil muddatga saylanadi.</p>	<p>3.2. Members of the Supervisory Board of the Society shall be elected by the General Meeting of Shareholders for a term of three (3) years in accordance with the procedure prescribed by the legislation and the Charter of the Society.</p>
<p>3.3. Kuzatuv kengashining a'zosi faqat jismoniy shaxs bo'lishi mumkin. Kuzatuv kengashi a'zolari (Kuzatuv kengashi a'zoliciga nomzodlar) malaka talablariga, shu jumladan korporativ boshqaruvchining ilmiy-ta'lim markazi tomonidan berilgan malaka attestati (qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno) va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan va ularga muvofiq jamiyat normativ hujjatlari bilan qabul qilingan ishbilarmonlik obro'si talablariga javob berishi kerak.</p>	<p>3.3. Only individuals may serve as members of the Supervisory Board. Members of the Supervisory Board (candidates for membership) shall meet the qualification requirements, including possession of a qualification certificate issued by an authorized corporate governance training and certification center (except in cases provided for by law), as well as the business reputation requirements established by applicable legislation and the internal regulatory documents of the Society adopted in accordance therewith.</p>
<p>3.4. Kuzatuv kengashi tarkibiga kamida bitta mustaqil a'zo, lekin jamiyat Ustavida nazarda tutilgan Kuzatuv kengashi a'zolari sonining kamida 30 foizi saylanadi. Jamiyat Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolari quyidagilar bo'lishi mumkin:</p> <p>3.4.1. so'nggi 5-yil ichida jamiyat va uning sho'ba yoki filiallarida ishlamagan;</p> <p>3.4.2. jamiyat, uning sho'ba yoki filiallariga maslahat xizmatlarini ko'rsatuvchi kompaniyalar bilan bog'liq bo'lmagan;</p> <p>3.4.3. jamiyat, uning sho'ba yoki filiallar muhim mijosi yoki yetkazib beruvchisi bilan bog'liq bo'lmasligi;</p> <p>3.4.4. jamiyat bilan fuqarolik-huquqiy tUSDagi shartnomalar bilan bog'liq bo'lmasligi va jamiyat yirik aksiyadori yoki yuqori turuvchi tarmoq tashkiloti xodimi bo'lmasligi lozim.</p> <p>3.4.5. jamiyat, uning sho'ba yoki filiallari rahbarlarining so'nggi 5 yil ichida bo'lgan yoki bo'lmagan shaxs oila a'zosi bo'lmasligi;</p>	<p>3.4. At least one independent member, but not less than 30 percent of the number of members of the Supervisory Board stipulated in the Charter of the Society, shall be elected to the Supervisory Board.</p> <p>Independent members of the Supervisory Board shall be persons who:</p> <p>3.4.1. have not been employed by the Society or its subsidiaries or branches during the last five (5) years;</p> <p>3.4.2. are not affiliated with companies providing consulting services to the Society, its subsidiaries or affiliates;</p> <p>3.4.3. are not affiliated with a major customer or supplier of the Society, its subsidiaries or affiliates;</p> <p>3.4.4. are not parties to civil law contracts with the Society and are not major shareholders of the Society or employees of a superior industry organization;</p>

<p>3.4.6. jamiyatni boshqaruvchi shaxsi bo'lmashligi (yoki jamiyatni birgalikda boshqaradigan shaxslar guruhi va/yoki tashkilot a'zosi);</p> <p>3.4.7. jamiyat bilan fuqarolik-huquqiy tuzdagi shartnomalar bilan bog'liq bo'lmashligi va jamiyat yirik aksiyadori yoki yuqori turuvchi tarmoq tashkiloti ("O'zkiyosanoat" AJ) xodimi bo'lmashligi lozim.</p>	<p>3.4.5. are not family members of the executives of the Society, its subsidiaries or branches, whether current or within the last five (5) years;</p> <p>3.4.6. do not act as the executive body of the Society, nor as members of a group of persons jointly managing the Society;</p> <p>3.4.7. are not employees of the superior industry organization "Uzkiyosanoat" JSC.</p>
<p>3.5. Jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra jamiyat kuzatuv kengashining har qanday a'zosi (barcha a'zolari) vakolatlari muddatidan oldin tugatilishi mumkin.</p>	<p>3.5. Persons elected to the Supervisory Board of the Society may be re-elected without limitation. By decision of the General Meeting of Shareholders, the powers of any member (or all members) of the Supervisory Board may be terminated prior to the expiration of their term of office.</p>
<p>3.6. Ayni shu jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosi bo'lishi mumkin emas.</p>	<p>3.6. Persons employed by the Society under an employment contract may not be members of the Supervisory Board of the Society.</p>
<p>3.7. Kuzatuv kengashi a'zolari Kuzatuv kengashi tomonidan muayyan qarorlarni qabul qilishga ta'sir ko'rsatganligi uchun bevosita yoki bilvosita haq olish huquqiga ega emaslar.</p>	<p>3.7. Members of the Supervisory Board shall not be entitled to receive, directly or indirectly, any remuneration for influencing the adoption of specific decisions by the Supervisory Board.</p>
<p>3.8. Kuzatuv kengashi a'zolari jamiyat imkoniyatlaridan (mulkiy yoki nomulkiy huquqlar, xo'jalik faoliyati sohasidagi imkoniyatlar, jamiyat faoliyati va rejaları to'g'risidagi ma'lumotlar) shaxsiy boyitish maqsadida foydalanish huquqiga ega emaslar.</p>	<p>3.8. Members of the Supervisory Board shall not be entitled to use the Society's opportunities (including property and non-property rights, business opportunities, or information regarding the Society's activities and plans) for personal gain.</p>
<p>3.9. Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi Kuzatuv kengashi a'zolariga saylanadigan shaxslarga qo'shimcha talablarni belgilashi mumkin.</p>	<p>3.9. The General Meeting of Shareholders of the Society may establish additional requirements for candidates elected to the Supervisory Board.</p>
<p>IV. Kuzatuv kengashi raisi va kotibi</p>	<p>IV. Chairman and Secretary of the Supervisory Board</p>
<p>4.1. Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan, ushbu kengash tarkibidan Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan saylanadi.</p>	<p>4.1. The Chairman of the Supervisory Board of the Society shall be elected by the members of the Supervisory Board from among themselves by a majority vote of all members.</p>
<p>4.2. Jamiyatning Kuzatuv kengashi o'z raisini Kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan qayta saylashga haqli.</p>	<p>4.2. The Supervisory Board shall have the right to re-elect its Chairman by a majority vote of all members.</p>
<p>4.3. Kuzatuv kengashi raisi:</p> <p>4.3.1. Kuzatuv kengashining ishini tashkil etadi;</p> <p>4.3.2. Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi;</p> <p>4.3.3. Kuzatuv kengashi majlislarida bayonnoma yuritilishini tashkil etadi;</p> <p>4.3.4. Jamiyat nomidan ijroiya organ a'zolarini (boshqaruv raisidan tashqari) yollash bo'yicha mehnat shartnomalarini tuzadi, agar Kuzatuv kengashi bunday vakolatlarni boshqa shaxsga bermasa;</p>	<p>4.3. Powers and duties of the Chairman of the Supervisory Board:</p> <p>4.3.1. Organizes the work of the Supervisory Board;</p> <p>4.3.2. Convenes and chairs meetings of the Supervisory Board;</p> <p>4.3.3. Ensures proper keeping of minutes at meetings of the Supervisory Board;</p> <p>4.3.4. On behalf of the Society, concludes employment contracts for members of the Executive Body (except the Chairman of the Management Board), unless such powers are delegated by the</p>

<p>4.3.5. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining internet tarmog'i orqali audio-video yozuvlari va translyatsiyalariga ruxsat beradi;</p> <p>4.3.6. Jamiyat ijroiya organi tomonidan Kuzatuv kengashi tomonidan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Jamiyat Ustavi va rivojlanish rejalari tomonidan qo'yilgan vazifalarni so'zsiz bajarish uchun o'z vakolatiga kiradigan masalalarni mustaqil hal qilishni talab qiladi;</p> <p>4.3.7. Kuzatuv kengashining yillik samaradorligini o'z-o'zini baholashni tashkil qiladi</p>	<p>Supervisory Board to another person;</p> <p>4.3.5. Authorizes audio-video recordings and broadcasts of the General Meeting of Shareholders via the Internet;</p> <p>4.3.6. Requires the Society's Executive Body to independently address matters within its competence to ensure the fulfillment of tasks established by the General Meeting of Shareholders, the Society's Charter, and development plans;</p> <p>4.3.7. Organizes the Supervisory Board's self-assessment of annual performance.</p>
<p>4.4. Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi kengash a'zolarining ovozlari teng bo'lgan taqdirda Kuzatuv kengashi tomonidan qaror qabul qilishda hal qiluvchi ovoz berish huquqiga ega.</p>	<p>4.4. In the event of a tie in votes among the members of the Supervisory Board, the Chairman shall have the casting vote.</p>
<p>4.5. Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi bo'lmagan taqdirda uning vazifasini Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri amalga oshiradi.</p>	<p>4.5. In the absence of the Chairman, one of the Supervisory Board members shall perform his duties.</p>
<p>4.6. Jamiyat Kuzatuv kengashi kotibi Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan Kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan saylanadi. Odatda, kotib lavozimi doimiy asosda jamiyatning korporativ munosabatlar boshqarmasi xodimiga yuklanadi.</p>	<p>4.6. The Secretary of the Supervisory Board shall be elected by a majority vote of the members of the Supervisory Board. As a rule, the position is permanently assigned to an employee of the Society's Corporate Relations Department.</p>
<p>4.7. Kuzatuv kengashi kotibi bo'lmagan taqdirda uning vazifasini jamiyatning boshqa xodimlaridan biri yoki kuzatuv kengashi a'zosidan biri amalga oshiradi.</p>	<p>4.7. In the absence of the Secretary, his duties shall be performed by another employee of the Society or a member of the Supervisory Board.</p>
<p>4.8. Kuzatuv kengashi faoliyatini ta'minlash uchun kuzatuv kengashi kotibi barcha zarur choralarini ko'radi.</p>	<p>4.8. The Secretary shall take all necessary measures to ensure the proper functioning of the Supervisory Board.</p>
<p>V. Kuzatuv kengashining majlislarini tashkil etish va o'tkazish tartibi</p>	<p>V. Procedure for Organizing and Holding Meetings of the Supervisory Board</p>
<p>5.1. Kuzatuv kengashi yig'ilishlari hujjatlari 2 tilda – o'zbek va ingliz tillarida tayyorlanadi. Agar kuzatuv kengashi yig'ilishida o'zbek tili qo'llanilsa, sinxron tarjima bilan ta'minlanishi lozim.</p>	<p>5.1. Documents of the Supervisory Board meetings shall be prepared in two languages — Uzbek and English. If Uzbek is used during a meeting, simultaneous interpretation shall be provided.</p>
<p>5.2. Kuzatuv kengashining navbatdagi yig'ilishlari har yili boshlanishidan oldin kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan yillik ish rejasi (1-ilova)ga muvofiq o'tkaziladi. Navbatdagi yig'ilish sanasi agar bunday taklif kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan kiritilsa va yangi sana barcha a'zolar uchun maqbul bo'lsa hamda ushbu Nizomda belgilangan muddatlarga rioya etilgan holda o'zgartirilishi mumkin.</p>	<p>5.2. Regular meetings of the Supervisory Board shall be held in accordance with the annual work plan (Appendix 1) approved by the Supervisory Board prior to the start of each year. The date of a regular meeting may be changed if proposed by the members of the Supervisory Board, provided that the new date is acceptable to all members and the deadlines set out in these Regulations are observed.</p>
<p>5.3. Kuzatuv kengashining navbatdan tashqari yig'ilishi quyidagilar tashabbusi bilan chaqirilishi mumkin:</p> <ul style="list-style-type: none"> • kuzatuv kengashi raisi tashabbusi bilan; 	<p>5.3. An extraordinary meeting of the Supervisory Board may be convened at the request of:</p> <ul style="list-style-type: none"> •the Chairman of the Supervisory Board;

<ul style="list-style-type: none"> • kuzatuv kengashi a'zosining talabiga ko'ra; • ijroiya organi rahbari (Boshqaruv raisi)ning talabiga ko'ra. 	<ul style="list-style-type: none"> •any member of the Supervisory Board; •the head of the Executive Body (Chairman of the Management Board).
<p>5.4. Kuzatuv kengashi kotibi yig'ilish o'tkazilishi haqida xabarni Kuzatuv kengashi a'zolariga yig'ilishdan kamida 14 kun oldin yuborishi shart.</p>	<p>5.4. The Secretary of the Supervisory Board shall notify members of the meeting at least 14 days in advance.</p>
<p>5.5. Kuzatuv kengashi majlisini o'tkazish to'g'risidagi xabarnoma quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • yig'ilish sanasi, vaqti, joyi va/yoki shakli (shaxsan, zoom orqali yoki ovoz berish yo'li bilan); • yig'ilish kun tartibi loyihasi (2-ilova). <p>Yozma xabarnomalar (va boshqa xabarlar) Kuzatuv kengashi a'zolariga xavfsiz elektron aloqa vositalari orqali yuboriladi (korporativ elektron pochta va/yoki yopiq WhatsApp/Telegram guruhlari, MS SharePoint va h.k.).</p>	<p>5.5. The notice of a Supervisory Board meeting shall include:</p> <ul style="list-style-type: none"> •the date, time, place and/or format of the meeting (in person, via Zoom, or by means of voting); •the draft agenda of the meeting (Appendix 2). <p>Written notices and other communications shall be sent to members via secure electronic channels, including corporate email, closed WhatsApp/Telegram groups, MS SharePoint, or other approved means.</p>
<p>5.6. Kuzatuv Kengashi a'zolari kun tartibi loyahasini olgandan keyin 3 kun ichida kun tartibiga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega. Kuzatuv Kengashi raisi qabul qilingan barcha takliflarni ko'rib chiqadi va zarur hollarda kun tartibining yakuniy loyhasini tayyorlaydi. Boshqaruv raisi, agar kerak bo'lsa, ijro etuvchi organ tomonidan qo'shimcha materiallarni tayyorlashni muvofiqlashtiradi va ularning barcha a'zolariga kamida 7 kun oldin tarqatilishini ta'minlaydi.</p>	<p>5.6. The Supervisory Board members has a right to suggest changes to the agenda within 3 days after receiving the draft agenda. The Chairman of the Supervisory Board shall review all proposals received and, if necessary, prepare the final draft agenda. The Chairman shall also coordinate the preparation of additional materials by the Executive Body, if required, and ensure their distribution to all members at least 7 days in advance.</p>
<p>5.7. Kuzatuv kengashi a'zosi tomonidan kiritilgan masala Kuzatuv Kengashi majlisining kun tartibiga kiritilishi lozim, biroq quyidagi hollar bundan mustasno:</p> <p>5.7.1. Kuzatuv Kengashi a'zosi ushbu Nizomning 5.6-bandida belgilangan muddatga rioya qilmagan bo'lsa;</p> <p>5.7.2. takliflar qonunchilik va/yoki jamiyat Ustavi talablariga javob bermasa.</p>	<p>5.7. Any issue proposed by a member shall be included in the meeting agenda, except in the following cases:</p> <p>5.7.1. the member fails to comply with the deadline specified in clause 5.6;</p> <p>5.7.2. the proposals do not comply with the requirements of legislation and/or the Charter of the Society.</p>
<p>5.8. Yig'ilish o'tkazilishidan kamida 7 kun oldin Kuzatuv kengashi kotibi Kuzatuv kengashi a'zolariga kun tartibidagi masalalar yuzasidan materiallar to'plamini elektron ravishda taqdim etadi, unda quyidagilar mavjud:</p> <ul style="list-style-type: none"> • kun tartibining yakuniy loyihasi va yig'ilishga taklif qilingan shaxslar ro'yxati; • har bir masala bo'yicha qarorlar loyihasi va ularni qabul qilish zarurligining asoslanishi (3-ilova); • kun tartibidagi har bir masala bo'yicha qo'shimcha hujjatlar va boshqa axborot materiallari; 	<p>5.8. At least seven (7) days prior to the meeting, the Secretary of the Supervisory Board shall electronically provide the members of the Supervisory Board with a package of materials relating to the agenda, including:</p> <ul style="list-style-type: none"> •the final draft agenda and the list of persons invited to the meeting; •draft decisions for each agenda item, together with justification for their adoption (Appendix 3); •supporting documents and other information materials for each agenda item; •a voting ballot (for absentee voting), indicating the date of submission of the completed ballot to the Supervisory Board (Appendix 4).

<ul style="list-style-type: none"> • ovoz berish byulleteni (sirdan ovoz berish uchun) to'ldirilgan byulletenning Kuzatuv Kengashiga taqdim etilgan sanasini ko'rsatgan holda (4-ilova). <p>Materiallar kun tartibining har bir masalasi bo'yicha alohida papkalarda tuzilishi va papka kun tartibidagi raqam va nom bilan belgilanishi kerak. Kuzatuv kengashi a'zolaridan biri talab qilsa, materiallar yig'ilishdan oldin qog'oz shaklda ham taqdim etilishi shart.</p>	<p>Materials shall be organized in separate folders for each agenda item, with each folder marked with the relevant agenda number and title. At the request of any member of the Supervisory Board, the materials shall also be provided in hard copy prior to the meeting.</p>
<p>5.9. Juda zarur hollarda kuzatuv kengashi raisi barcha a'zolar materiallar va qarorlar bilan tanishishga yetarli vaqtga egaligini tasdiqlagan taqdirda, ushbu Nizomda belgilangan muddatlarga rioya qilmasdan navbatdan tashqari yig'ilish chaqirishi mumkin.</p>	<p>5.9. In exceptional cases, the Chairman of the Supervisory Board may convene an extraordinary meeting without observing the deadlines established by this Regulation, provided that all members have confirmed that they have had sufficient time to review the materials and draft decisions.</p>
<p>5.10. Kuzatuv kengashi a'zolari yig'ilishdan 2 kun oldin materiallar yuzasidan savollar berish va qo'shimcha ma'lumot so'rash huquqiga ega. Barcha yozma murojaatlar xavfsiz vositalar orqali yuborilishi va barcha a'zolarga ochiq qilib taqdim etilishi shart.</p>	<p>5.10. Members of the Supervisory Board shall have the right to submit questions regarding the materials and to request additional information no later than two (2) days prior to the meeting. All written requests shall be submitted via secure communication channels and made available to all members of the Supervisory Board.</p>
<p>5.11. Kuzatuv kengashi yig'ilishi boshlanishida kun tartibi loyihasi taqdim etiladi va tasdiqlanadi. Biroq, yig'ilishda ishtirok etgan barcha a'zolarning bir ovozdan qarori bilan kun tartibiga qo'shimcha masalalar ham kiritilishi mumkin.</p>	<p>5.11. At the beginning of a Supervisory Board meeting, the draft agenda shall be presented and approved. Additional items may be included in the agenda by a unanimous decision of all members present at the meeting.</p>
<p>5.12. Kuzatuv kengashi yig'ilishlari videokonferensiya (Zoom) orqali yoki shaxsan qatnashish shaklida o'tkazilishi mumkin. Agar a'zo shaxsan qatnasholmasa, u videokonferensiya orqali ishtirok etish va ovoz berish huquqiga ega. Ijroiya organi bunday aloqani tashkil etish uchun zarur choralarni ko'radi. Agar videokonferensiyada ishtirokchi bilan aloqa uzilsa, yig'ilish aloqa tiklangunga qadar to'xtatiladi.</p>	<p>5.12. Meetings of the Supervisory Board may be held in person or by videoconference (Zoom). If a member is unable to attend in person, he or she shall have the right to participate and vote via videoconference. The Executive Body shall take all necessary measures to ensure such participation. In the event that communication with a participant is disrupted during a videoconference, the meeting shall be suspended until the connection is restored.</p>
<p>5.13. Muzokara talab etmaydigan yoki oldindan muhokama qilingan masalalar kuzatuv kengashining barcha a'zolari bir ovozdan rozi bo'lganda zaочно ovoz berish (byulleten orqali) yo'li bilan qabul qilinishi mumkin. Bunday qarorlar yozma qaror shaklida rasmiylashtiriladi. Ushbu Nizomning kvorum va ovoz berish tartibi to'g'risidagi qoidalari yozma qarorlarga ham taalluqlidir.</p>	<p>5.13. Issues that do not require discussion or have been previously discussed may be adopted by written voting (by ballot), provided that all members of the Supervisory Board unanimously agree. Such decisions shall be formalized in the form of a written resolution. The provisions of this Regulation concerning quorum and voting procedures shall also apply to written resolutions.</p>
<p>5.14. Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolangan ovoz berish byulletenlari bilan tasdiqlangan va yozma shaklda rasmiylashtirilgan qaror qonuniy ravishda qabul qilingan qaror bilan bir xil kuchga ega.</p>	<p>5.14. A decision confirmed by voting ballots signed by the members of the Supervisory Board and formalized in writing shall have the same legal force as a duly adopted decision.</p>
<p>5.15. Sirdan ovoz berish tartibi:</p>	<p>5.15. Procedure for absentee voting:</p>

<p>5.15.1. Kuzatuv kengashining qarorlari sirdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin.</p> <p>5.15.2. Sirdan ovoz berishni o'tkazish bo'yicha qarorni kuzatuv kengashining raisi qabul qiladi.</p> <p>5.15.3. Sirdan ovoz berish uchun Kuzatuv Kengashining barcha a'zolariga Nizomning 5.4 va 5.8-bandlari talablariga javob beradigan sirdan ovoz berish to'g'risida xabarnomalar va materiallar yuboriladi.</p> <p>5.15.4. Ovoz berish byulletenlarida to'ldirilgan byulleten Kuzatuv Kengashiga taqdim etilgan sana ko'rsatilishi kerak.</p> <p>5.15.5. Kuzatuv kengashiga to'ldirilgan byulletenni taqdim etilishi belgilangan sanasidan kamida 5 kalendar kundan kechiktirmay kuzatuv kengashi a'zolariga sirdan ovoz berishni o'tkazish to'g'risidagi yozma xabarnoma yuboriladi.</p> <p>5.15.6. Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan to'ldirilgan va o'z qo'li bilan imzolangan ovoz berish byulletenlari kuzatuv kengashi kotibiga topshiriladi.</p> <p>5.15.7. Ovozlarini hisoblashda to'ldirilgan ovoz berish byulletenini belgilangan muddatda taqdim etgan kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari hisobga olinadi.</p> <p>5.15.8. Ovoz berilganida ovoz beruvchi qaysi masala bo'yicha ehtimol tutilgan ovoz berish variantlaridan faqat bittasini qoldirgan bo'lsa, o'sha masala bo'yicha berilgan ovozlar hisobga olinadi. Mazkur talabni buzgan holda to'ldirilgan ovoz berish byulletenlari haqiqiy emas, deb topiladi va ulardagi masalalar bo'yicha berilgan ovozlar hisobga olinmaydi. Agar ovoz berish byulletenida ovozga qo'yilgan bir nechta masala ko'rsatilgan bo'lsa, bir yoki bir nechta masalaga nisbatan mazkur bandeda ko'rsatilgan talabga rioya etilmaganligi byulletenning umuman haqiqiy emas, deb topilishiga sabab bo'lmaydi.</p> <p>5.15.9. Sirdan ovoz berish yakunlariga ko'ra kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi tuziladi.</p>	<p>5.15.1. Decisions of the Supervisory Board may be adopted unanimously by all members of the Supervisory Board through absentee voting (by written poll).</p> <p>5.15.2. The decision to conduct absentee voting is made by the chairman of the Supervisory Board.</p> <p>5.15.3. For absentee voting, notices of absentee voting and relevant materials that meet the requirements of paragraphs 5.4 and 5.8 of the Regulations shall be sent to all members of the Supervisory Board.</p> <p>5.15.4. Ballot papers must indicate the date on which the completed ballot was submitted to the Supervisory Board.</p> <p>5.15.5. A written notification of the conduct of absentee voting shall be sent to the members of the Supervisory Board at least 5 calendar days prior to the deadline for submission of completed ballots to the Supervisory Board.</p> <p>5.15.6. Ballot papers filled out and signed by the members of the Supervisory Board shall be submitted to the secretary of the Supervisory Board.</p> <p>5.15.7. When counting votes, the votes of the members of the Supervisory Board who submitted a completed ballot within the specified period shall be taken into account.</p> <p>5.15.8. If, during voting, the voter selects only one of the available voting options for the issue, the votes cast on that issue shall be counted. Ballots filled out in violation of this requirement shall be deemed invalid, and the votes cast on the issues therein shall not be counted. If several issues are listed on the ballot, failure to comply with the requirement specified in this paragraph in relation to one or more issues shall not result in the ballot being deemed invalid in general.</p> <p>5.15.9. Minutes of the Supervisory Board meeting will be drawn up based on the results of the absentee voting.</p>
<p>5.16. Majlis bayonnomasi Kuzatuv Kengashi kotibi tomonidan yuritiladi. Kuzatuv kengashi Majlisining bayonnomasi Kuzatuv Kengashi kotibi tomonidan u o'tkazilgan sanadan e'tiboran 2 kundan kechiktirmay tuziladi va nazorat kengashi a'zolariga tanishish uchun taqdim etiladi. Kuzatuv kengashi a'zolari protokol matniga qabul qilinganidan keyin 3 kun ichida qo'shimchalar/tuzatishlar kiritishlari mumkin. Agar 3 kun ichida hech qanday izoh berilmasa, protokol Kuzatuv kengashi a'zosi tomonidan qabul qilingan deb hisoblanadi. Majlis</p>	<p>5.16. The minutes of the meeting shall be recorded by the Secretary of the Supervisory Board. The minutes of the Supervisory Board meeting shall be prepared by the Secretary of the Supervisory Board no later than two (2) days from the date of the meeting and shall be submitted to the members of the Supervisory Board for review. Members of the Supervisory Board may submit comments, additions, or amendments to the draft minutes within three (3) days after receipt thereof. If no comments are submitted within this period, the minutes shall be deemed approved by the</p>

<p>o'tkazilgandan keyin 7 kundan kechiktirmay yakuniy bayonnoma Kuzatuv kengashi a' zolariga imzo qo' yish uchun taqdim etiladi.</p>	<p>members of the Supervisory Board. No later than seven (7) days after the meeting, the final version of the minutes shall be submitted to the members of the Supervisory Board for signature.</p>
<p>5.17. Majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - majlis shakli, sanasi, joyi va vaqti; - majlisda ishtirok etayotgan shaxslar, shu jumladan videokonferentsaloqa orqali ishtirok etayotganlar; - majlisning kun tartibi; - kvorum mavjudligi hamda manfaatlar to'qnashuvi yo'qligi to'g'risidagi bayonot; - taqdim etilgan masalalar, muhokamalar/savollarning qisqacha mazmuni; - qarorlar ovoz berish natijalari bo'yicha qabul qilinadi. 	<p>5.17. Minutes of the meeting shall indicate the following:</p> <ul style="list-style-type: none"> - the form, date, place and time of the meeting; - persons participating in the meeting, including those participating via videoconference; - agenda of the meeting; - a statement on the presence of a quorum and the absence of a conflict of interest; - a summary of the issues presented, discussions/questions; decisions adopted and the results of voting thereon.
<p>5.18. "Navoiyazot" AJ Kuzatuv kengashi Majlisining bayonnomasi Kuzatuv kengashi kotibi va majlisda ishtirok etayotgan Kuzatuv Kengashining barcha a'zolari tomonidan imzolanadi, ular bayonnoma to'g'ri tuzilganligi uchun javobgardir.</p>	<p>5.18. The Minutes of the Supervisory Board Meeting of Navoiyazot JSC shall be signed by the Secretary of the Supervisory Board and all members of the Supervisory Board participating in the meeting, who shall be responsible for the correctness of the minutes.</p>
<p>5.19. Kuzatuv Kengashining yig'ilish bayonnomasi, shuningdek, bayonning ajralmas qismi bo'lgan va unga qo'shib imzolangan byulleten (sirdan ovoz berishda) mavjud bo'lganda, kuzatuv Kengashining barcha a'zolari tomonidan imzolangan hisoblanadi. Bunday holda, bayon Kuzatuv kengashi raisi va kotibi tomonidan imzolanadi.</p>	<p>5.19. The Minutes of the Supervisory Board meeting, as well as the ballot (in case of absentee voting), which is an integral part of Minutes and is signed in addition to it, are considered signed by all members of the Supervisory Board. In this case, Minutes are signed by the Chairman and Secretary of the Supervisory Board.</p>
<p>5.20. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni Jamiyatning ijro organiga ijro etish uchun topshiriladi. Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda mazkur qaror haqidagi axborot Jamiyatning ijro organiga Kuzatuv kengashining majlisi o'tkaziladigan kuni topshiriladi.</p>	<p>5.20. The Minutes of the meeting of the Supervisory Board of the Society shall be submitted to the Executive Body of the Society for execution on the day of their signing. In the event that the Supervisory Board adopts a decision to convene a general meeting of shareholders, information about this decision shall be submitted to the Executive Body of the Society on the day of the meeting of the Supervisory Board.</p>
<p>5.21. Agar Kuzatuv kengashi jamiyat oldida aniq vazifalarni aniq belgilab qo'ygan bo'lsa, bunday vazifalar vaqt va mas'ul shaxslarni ko'rsatgan holda Kuzatuv kengashi topshiriqlari reestriga kiritilishi kerak (5-ilova).</p>	<p>5.21. If the Supervisory Board has clearly defined specific tasks for the Society, such tasks should be included in the register of tasks of the Supervisory Board, indicating the time and responsible persons (Appendix 5).</p>
<p>VI. Kuzatuv kengashi majlisining kvorumi va qaror qabul qilish.</p>	<p>VI. Quorum and Decision-Making Procedure of the Supervisory Board.</p>
<p>6.1. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisini o'tkazish uchun kvorum Jamiyat Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarining yetmish besh foizidan kam bo'lmasligi kerak.</p>	<p>6.1. The quorum for holding a meeting of the Supervisory Board of the Society shall be not less than seventy-five percent (75%) of the members elected to the Supervisory Board of the Society.</p>

<p>6.2. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining soni Jamiyat Ustavida nazarda tutilgan miqdorning yetmish besh foizidan kam bo'lgan taqdirda, Jamiyat Kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishi shart. Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilishga, shuningdek Jamiyat ijro organi rahbarining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlashga haqlidir.</p>	<p>6.2. If the number of members of the Supervisory Board of the Society falls below seventy-five percent (75%) of the number stipulated by the Charter of the Society, the Society shall be obliged to convene an extraordinary general meeting of shareholders to elect a new composition of the Supervisory Board. The remaining members of the Supervisory Board shall be entitled to decide on convening such an extraordinary general meeting of shareholders and, in the event of early termination of the powers of the head of the Executive Body of the Society, to appoint an interim acting head.</p>
<p>6.3. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, ushbu nizomning 2.2.21-bandida ko'rsatilgan qarorlar bundan mustasno.</p>	<p>6.3. Decisions at meetings of the Supervisory Board of the Society shall be adopted by a majority vote of the members present at the meeting, except for decisions specified in Clause 2.2.21 of this Regulation.</p>
<p>6.4. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida masalalar hal etilayotganda Kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi.</p>	<p>6.4. When considering issues at a meeting of the Supervisory Board of the Society, each member of the Supervisory Board shall have one vote.</p>
<p>6.5. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan taqdirda Kuzatuv kengashi tomonidan qaror qabul qilishda Jamiyat Kuzatuv kengashi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.</p>	<p>6.5. In the event of an equal number of votes cast by the members of the Supervisory Board of the Society, the vote of the Chairman of the Supervisory Board of the Society shall be decisive.</p>
<p>6.6. Jamiyat Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini Kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berishiga yo'l qo'yilmaydi.</p>	<p>6.6. A member of the Supervisory Board of the Society shall not be permitted to delegate his or her vote to another member of the Supervisory Board.</p>
<p>6.7. Kquorum mavjudligini va kun tartibidagi masalalarga ovoz berish natijalarini aniqlashda, oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadigan kun tartibidagi masalalar bo'yicha majlisda qatnashmayotgan kuzatuv kengashi a'zosining yozma fikri agar bir vaqtning o'zida quyidagi shartlarga rioya qilingan bo'lsa, inobatga olinishi mumkin:</p> <p>6.7.1. Kuzatuv kengashi majlis boshlanguniga qadar masala bo'yicha yozma fikrni olgan bo'lsalar;</p> <p>6.7.2. taklif etilgan qaror loyihasi bo'yicha "yoqlab" yoki "qarshi" ovoz berganligini yoxud qaror qabul qilinishidan "betaraf" bo'lganligini yozma fikrida ko'rsatgan holda masala bo'yicha kuzatuv kengashi a'zosi o'z nuqtayi nazarini aniq belgilagan bo'lsa.</p>	<p>6.7. When determining the presence of a quorum and the results of voting on agenda items adopted by a simple majority, the written opinion of a member of the Supervisory Board who is not present at the meeting may be taken into account, provided that all of the following conditions are met simultaneously:</p> <p>6.7.1. The written opinion on the relevant issue has been received by the Supervisory Board prior to the commencement of the meeting;</p> <p>6.7.2. The member of the Supervisory Board has clearly indicated his or her position on the issue in the written opinion, specifying whether he or she voted "for", "against", or abstained from voting on the proposed draft resolution.</p>
<p>6.8. Taklif etilgan qaror loyihasi bo'yicha tuzatishlar va izohlarni o'z ichiga olgan yozma fikr kuzatuv kengashi raisi qaroriga ko'ra inobatga olinishi mumkin. Bunday holatda Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasiga tegishli yozuvlar kiritiladi va taklif etilgan tuzatishlar va izohlar bo'yicha kuzatuv kengashi raisining qarorini inobatga olgan holda, kun tartibidagi masala bo'yicha qaror qabul qilinadi.</p>	<p>6.8. A written opinion containing amendments and comments to the proposed draft resolution may, at the discretion of the Chairman of the Supervisory Board, be taken into account. In such cases, the relevant entries shall be made in the Minutes of the Supervisory Board meeting, and a decision on the relevant agenda item shall be adopted taking into account the Chairman's decision regarding the proposed amendments and</p>

	comments.
6.9. Yozma fikrlar kворum mavjudligini va har bir masalaga ovoz berish natijalarini aniqlashda alohida hisobga olinadi va majlis bayonnomasida aks ettiriladi.	6.9. Written opinions shall be taken into account separately when determining the existence of a quorum and the results of voting on each agenda item and shall be reflected in the Minutes of the meeting.
6.10. Kворum mavjudligini va masalalarga ovoz berish natijalarini aniqlashda ularni hal qilish uchun malakali ko'pchilik ovoz yoki yakdillik talab qilinsa, yozma fikrlarni hisobga olishga yo'l qo'yilmaydi.	6.10. Written opinions shall not be taken into account when determining the existence of a quorum and the results of voting on issues that require a qualified majority or unanimity for their adoption.
6.11. Quyidagi masalalar bo'yicha kuzatuv kengashi qarorlari barcha saylangan kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi: 6.11.1. aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga Jamiyatni qayta tashkil etish yoki tugatish, tugatish komissiyasini tayinlash to'g'risidagi masalalarni kiritish; 6.11.2. sirtidan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) qabul qilinadigan qarorlar; 6.11.3. korporativ obligatsiyalar, shu jumladan, aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish; 6.11.4. O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 8- va 9-boblarida nazarda tutilgan hollarda bitimlar tuzish to'g'risidagi qarorlar.	6.11. Decisions of the Supervisory Board on the following matters shall be adopted unanimously by all elected members of the Supervisory Board: 6.11.1. inclusion in the agenda of the general meeting of shareholders of issues related to the reorganization or liquidation of the Society and the appointment of a liquidation commission; 6.11.2. decisions adopted by absentee voting (by poll); 6.11.3. issuance of corporate bonds, including bonds convertible into shares; 6.11.4. decisions on entering into transactions in cases provided for in Chapters 8 and 9 of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Joint-Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights".
6.12. Quyidagi masalalar bo'yicha kuzatuv kengashi qarorlari ovoz berishda qatnashayotgan kuzatuv kengashi a'zolarining to'rt dan uch qismidan iborat ko'pchilik (malakali ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi: 6.12.1. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirilishini rad etish; 6.12.2. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga masalani yoki nomzodni Jamiyat kuzatuv kengashi va taftish komissiyasiga saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish.	6.12. Decisions of the Supervisory Board on the following matters shall be adopted by a qualified majority of three-quarters (3/4) of the Supervisory Board members participating in the vote: 6.12.1. refusal to convene an extraordinary general meeting of shareholders; 6.12.2. refusal to include an issue on the agenda of the general meeting of shareholders or a candidate in the list of candidates for voting in elections to the Supervisory Board or the Audit Commission of the Society.
VII. Kuzatuv kengashining qo'mitalari	VII. Committees of the Supervisory Board
7.1. Jamiyatning kuzatuv kengashi asosli va samarali qarorlarni qabul qilinishini ta'minlash maqsadida, shu jumladan, nizoli holatlarni aniqlash va hal qilish uchun tegishli masalalar bo'yicha doimiy va vaqtincha faoliyat yurituvchi qo'mitalar (ishchi guruhlar) tuzishga haqli.	7.1. The Supervisory Board of the Society shall be entitled to establish permanent and ad hoc committees (working groups) on relevant matters for the purpose of ensuring the adoption of substantiated and effective decisions, including the identification and resolution of disputable issues.
7.2. Eng muhim masalalarni ko'rib chiqish va tavsiyalar tayyorlash uchun Kuzatuv kengashi huzuridagi 4 ta qo'mita faoliyat ko'rsatadi:	For the consideration of key matters and the preparation of recommendations, the following four (4) committees shall operate under

<ul style="list-style-type: none"> - Audit qo'mitasi; - Tayinlovlar va haq to'lash qo'mitasi; - Strategiya va investitsiyalar qo'mitasi; - Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi. 	<p>the Supervisory Board:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Audit Committee; • Nomination and Remuneration Committee; • Strategy and Investment Committee; • Anti-Corruption and Ethics Committee.
<p>7.3. Barcha qo'mitalarning faoliyati qo'mita tarkibi, vakolatlari, ish tartibi hamda a'zolarining huquq va majburiyatlari kabi qoidalarni o'z ichiga olgan ichki hujjatlar bilan tartibga solinadi.</p>	<p>7.3. The activities of all committees shall be governed by internal regulations defining, inter alia, the composition of the committee, its scope of authority, operating procedures, as well as the rights and obligations of its members.</p>
<p>7.4. Kuzatuv kengashi qo'mitalari ma'lum bir qo'mitada ishlash uchun zarur bo'lgan professional bilimlarga ega bo'lgan Kuzatuv kengashi a'zolaridan iborat. Har bir qo'mitaning miqdoriy va shaxsiy tarkibi Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.</p>	<p>7.4. Committees of the Supervisory Board shall be composed of members of the Supervisory Board possessing the professional knowledge and expertise required for participation in the relevant committee. The number of members and personal composition of each committee shall be determined by the Supervisory Board.</p>
<p>7.5. Qo'mita majlisida uning a'zolarining kamida 2/3 qismi ishtirok etsa, majlis vakolatli hisoblanadi, bunda qo'mita raisi ishtirok etishi shart. Majlisda qarorlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Har bir qo'mita a'zosi bir ovozga ega.</p>	<p>7.5. A committee meeting shall be deemed quorate if at least two-thirds (2/3) of its members are present, provided that the Chairman of the committee participates in the meeting. Decisions shall be adopted by a simple majority of votes. Each committee member shall have one vote.</p>
<p>7.6. Qo'mitaning qarori majlis bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu bayonnoma qo'mita kotibi tomonidan yuritiladi va u ovoz berishda qatnashgan a'zolari tomonidan imzolanadi.</p>	<p>7.6. Decisions of a committee shall be documented in the Minutes of the meeting. The Minutes shall be maintained by the committee secretary and signed by the members who participated in the voting.</p>
<p>VIII. Kuzatuv kengashi a'zolarining huquq va majburiyatlari</p>	<p>VIII. Rights and obligations of members of the Supervisory Board</p>
<p>8.1. Kuzatuv kengashi a'zosi quyidagi huquqlarga ega:</p> <p>8.1.1. Kuzatuv kengashi majlisida shaxsan ishtirok etish, majlisda muhokama qilinayotgan masala yuzasidan reglament bilan ajratilgan vaqt doirasida so'zga chiqish;</p> <p>8.1.2. Kuzatuv kengashi qaroriga ko'ra muayyan davrda Jamiyatning faoliyati natijalari, uni rivojlantirish rejalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborot olish;</p> <p>8.1.3. qonun hujjatlarida va jamiyat ustavida nazarda tutilgan boshqa huquqlar.</p>	<p>8.1. A member of the Supervisory Board shall have the right to:</p> <p>8.1.1. personally participate in meetings of the Supervisory Board and speak on matters under discussion within the time limits established by the meeting regulations;</p> <p>8.1.2. obtain complete and reliable information on the results of the Society's activities and its development plans for a specified period, in accordance with a decision of the Supervisory Board;</p> <p>8.1.3. exercise other rights provided for by the legislation and the Charter of the Society.</p>
<p>8.2. Kuzatuv Kengashining Kuzatuv kengashi a'zolari o'rtasidagi funktsiyalar Kuzatuv kengashi raisi tomonidan Kuzatuv Kengashining har bir a'zosi uchun alohida taqsimlanadi.</p>	<p>8.2. The distribution of functions among members of the Supervisory Board shall be determined by the Chairman of the Supervisory Board individually for each member.</p>
<p>8.3. Kuzatuv kengashi a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiyatning manfaatlarini ko'zlab vijdonan va oqilona</p>	<p>8.3. In exercising their rights and fulfilling their obligations, members of the Supervisory Board shall act in good faith and reasonably in the interests of</p>

<p>ish tutishi, ularga ma'lum bo'lgan maxfiy ma'lumotlarni va xizmat hamda tijorat sirini tashkil etuvchi Jamiyat hujjatlarini oshkora qilmasliklari lozim.</p>	<p>the Society and shall not disclose confidential information or documents of the Society constituting official or commercial secrets.</p>
<p>8.4. Kuzatuv kengashi a'zolari o'z mavqeini va Jamiyat faoliyati haqida olingan ma'lumotlarni shaxsiy manfaatlarida foydalanishiga, shuningdek ushbu ma'lumotlarni boshqa shaxslar tomonidan shaxsiy manfaatlarida foydalanishiga yo'l qo'ymasliklari lozim.</p>	<p>8.4. Members of the Supervisory Board shall not use their position or information obtained in connection with the activities of the Society for personal benefit, nor allow such information to be used by third parties for personal benefit.</p>
<p>8.5. Kuzatuv kengashi a'zolari Kuzatuv kengashi majlisida shaxsan qatnashishlari shart. Agar majlisda qatnashish imkoniyati mavjud bo'lmasa Kuzatuv kengashi a'zosi sabablarini ko'rsatgan holda Kuzatuv kengashini bu haqda xabardor qiladi. Bir vaqtning o'zida Kuzatuv kengashi a'zosi mazkur Nizomga muvofiq kun tartibidagi masalalar yuzasidan yozma fikrini yuborishga haqli.</p>	<p>8.5. Members of the Supervisory Board shall attend meetings of the Supervisory Board in person. Where personal attendance is not possible, a member shall notify the Supervisory Board in advance, stating the reasons. In such cases, the member shall have the right to submit a written opinion on agenda items in accordance with these Regulations.</p>
<p>8.6. Affillangan shaxs bo'lgan Kuzatuv kengashining a'zosi Jamiyat bilan bitim tuzishda affillangan ekanligi to'g'risida tuzilishi kutilayotgan bitim haqidagi ma'lumotlarni, shu jumladan bitimda ishtirok etayotgan shaxslar, bitim predmeti to'g'risidagi ma'lumotlarni, tegishli shartnomaning muhim shartlarini batafsil ko'rsatgan holda yozma bildirgi yuborish orqali Jamiyatni xabardor etishi shart.</p>	<p>8.6. A member of the Supervisory Board who is an affiliated person shall notify the Society in writing of such affiliation when a transaction with the Society is contemplated, providing detailed information on the proposed transaction, including the parties involved, the subject matter of the transaction and the material terms of the relevant agreement.</p>
<p>8.7. Yuqorida aytib o'tilgan jamiyat Kuzatuv Kengashining a'zosi muhokamada ishtirok etishga haqli emas va jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan ushbu bitim bo'yicha qaror qabul qilishda ovoz berish huquqiga ega emas.</p>	<p>8.7. Such member of the Supervisory Board shall not participate in the discussion of the relevant matter and shall not have the right to vote on the adoption of a decision by the Supervisory Board in respect of such transaction.</p>
<p>8.8. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zosini jamiyat tomonidan bitim tuzishda affillangan shaxs deb tan olish "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 9-bobi talablariga muvofiq amalga oshiriladi.</p>	<p>8.8. Recognition of a member of the Supervisory Board of the Society as an affiliated person for the purposes of concluding a transaction shall be carried out in accordance with the requirements of Chapter 9 of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Joint-Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights".</p>
<p>8.9. Kuzatuv kengashi a'zosi jamiyatning Kuzatuv Kengashiga biron bir bitim tuzishda yoki to'g'ridan-to'g'ri jamiyatga tegishli bo'lgan har qanday masalada (to'g'ridan-to'g'ri, bilvosita yoki uchinchi shaxslar nomidan) katta qiziqish mavjudligi to'g'risida ma'lumot berishga majburdir.</p>	<p>8.9. A member of the Supervisory Board shall be obliged to inform the Supervisory Board of the Society of any material interest, whether direct, indirect or acting on behalf of third parties, in the conclusion of any transaction or in any matter directly related to the Society.</p>
<p>8.10. Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosi quyidagilar natijasida jamiyatga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • chalg'ituvchi axborot yoki bila turib yolg'on axborot taqdim etganlik; • ushbu Qonunda belgilangan axborot taqdim etish tartibini buzganlik; • jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan yirik bitimlarni va (yoki) amalga oshirilishidan manfaatdorlik mavjud bo'lgan bitimlarni tuzishni taklif etganlik, shu jumladan jamiyat bilan bunday bitimlar tuzilishi natijasida o'zlari 	<p>8.10. A member of the company's supervisory board shall be liable for any damage caused to the company as a result of the following actions:</p> <ul style="list-style-type: none"> • providing misleading or knowingly false information; • breaching the information disclosure procedure established by this law;

<p>yoki o'z affillangan shaxslari tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida bitimlar tuzishni taklif etganlik;</p> <ul style="list-style-type: none"> • fidutsiar majburiyatlarni bajarmaslik. 	<ul style="list-style-type: none"> • initiating or proposing major transactions and (or) interested-party transactions that cause damage to the company, including those intended to obtain profit (income) for themselves or their affiliated persons; • failing to fulfill fiduciary duties.
<p>8.11. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolarining fidutsiar majburiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:</p> <p>vazifa va majburiyatlarini amalga oshirishda vijdonan harakat qilib, jamiyat va aksiyadorlar manfaatlarini eng ko'p aks ettiruvchi usullardan foydalanishni;</p> <p>jamiyat mol-mulkidan jamiyatning ustaviga va ichki hujjatlariga zid ravishda va (yoki) aksiyadorlar umumiy yig'ilishining va (yoki) kuzatuv kengashining qarorlarisiz, shaxsiy manfaatlarini ko'zlab foydalanmaslikni hamda undan boshqa shaxslar tomonidan shu tarzda foydalanilishiga yo'l qo'ymaslikni;</p> <p>jamiyatning biznes imkoniyatlaridan yoki jamiyat uchun manfaatli bo'lgan ob'ektlardan o'z vazifalarini bajarishi munosabati bilan yoki o'z mavqeidan kelib chiqqan holda, jamiyatning tegishli boshqaruv organlari roziligisiz, shaxsiy naf olish maqsadida yoki boshqa shaxslar manfaatlarini ko'zlab, shunday naf olishga ko'maklashish maqsadida foydalanmaslikni;</p> <p>jamiyatning asosiy faoliyati yo'nalishlariga xos bo'lgan sohadagi tadbirkorlik faoliyatini jamiyatning tegishli boshqaruv organlari roziligisiz amalga oshirmaslikni;</p> <p>qonunchilikka, jamiyatning ichki hujjatlariga va shartnomaga muvofiq jamiyat faoliyati to'g'risidagi maxfiy axborotni oshkor qilmaslikni;</p> <p>o'z vazifalarini bajarish bilan bog'liq qarorlar qabul qilish evaziga moddiy qimmatliklar olmaslikni yoki bundan manfaatdor bo'lgan shaxslardan mulkiy manfaatdor bo'lmaslikni.</p>	<p>8.11. The fiduciary duties of members of the company's supervisory board include:</p> <ul style="list-style-type: none"> • acting in good faith in the performance of their duties and obligations, using methods that best serve the interests of the company and its shareholders; • refraining from using the company's property for personal gain, contrary to the company's charter or internal regulations, or without the approval of the general meeting of shareholders and/or the Supervisory Board, and preventing others from doing so; • not exploiting the company's business opportunities or assets beneficial to the company, in connection with the performance of their duties or by virtue of their position, for personal gain or for the benefit of others without the consent of the relevant governing bodies of the company; • not engaging in entrepreneurial activities in fields related to the company's core business without the consent of the relevant governing bodies of the company; • not disclosing confidential information regarding the company's activities in violation of legislation, the company's internal regulations, or agreements; • not receiving material benefits or acquiring a financial interest in connection with decisions made in the performance of their duties, either directly or through persons acting in their interest.
<p>IX. Kuzatuv kengashi a'zolarining javobgarligi</p>	<p>IX. Liability of the Members of the Supervisory Board</p>
<p>9.1. Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiyatning manfaatlarini ko'zlab ish tutishi hamda belgilangan tartibda javobgar bo'lishi lozim.</p>	<p>9.1. Members of the Supervisory Board of the Society shall, in exercising their rights and fulfilling their obligations, act in the interests of the Society and shall bear liability in accordance with the procedure established by law.</p>
<p>9.2. Agar bir nechta shaxs javobgar bo'lsa, ularning Jamiyat oldidagi javobgarligi solidar javobgarlik bo'ladi. Ovoz berishda ishtirok etmagan yoki jamiyatning zarar etkazishiga olib kelgan qarorga qarshi ovoz bergan Kuzatuv kengashi a'zolari javobgar emas.</p>	<p>9.2. Where two or more persons are liable, their liability to the Society shall be joint and several. Members of the Supervisory Board who did not participate in the voting or who voted against a decision that resulted in damage to the Society shall not be held liable.</p>
<p>9.3. Jamiyat yoki u joylashtirgan aksiyalarning hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) Jamiyatga yetkazilgan</p>	<p>9.3. The Society or a shareholder (or shareholders) holding in aggregate at least one percent of the Society's placed shares shall have the right to</p>

zararlarning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'vo bilan Jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zosi ustidan sudga murojaat qilishga haqli.	file a claim in court against a member of the Supervisory Board for compensation of damages caused to the Society.
9.4. Sud Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosini Jamiyatga mulkiy zarar yetkazganlikda aybdor deb topgan taqdirda, ushbu a'zoning vakolatlari sudning qaroriga ko'ra, uning xo'jalik jamiyatlarida rahbarlik lavozimini egallashi taqiqlangan holda, bir yildan kam bo'lmagan muddatga tugatilishi mumkin.	9.4. If a court finds a member of the Supervisory Board of the Society guilty of causing property damage to the Society, such member's powers may be terminated by a court decision for a period of not less than one year, with a prohibition on holding managerial positions in business entities.
9.5. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zosi noto'g'ri ma'lumot berish yoki bila turib yolg'on ma'lumot berish yoki yirik bitim tuzish va (yoki) affillangan shaxslar bilan ular yoki ularning filiallari tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilish taklifi natijasida jamiyatga etkazilgan zarar uchun javobgarlikka tortilishi mumkin).	9.5. A member of the Supervisory Board of the Society may be held liable for damage caused to the Society as a result of: <ul style="list-style-type: none"> • providing inaccurate information or knowingly providing false information; or • proposing or supporting a decision to conclude a major transaction and/or a transaction with affiliated persons aimed at obtaining profit (income) by such persons or their affiliates.
X. Kuzatuv kengashi qarorlarining ijrosi	X. Implementation of Supervisory Board Decisions
10.1. Jamiyat Kuzatuv Kengashining qarorlari Jamiyat ijroiya organi tomonidan tegishliligi bo'yicha bajarilishi shart.	10.1. The decisions of the Supervisory Board of the Society shall be mandatory for execution and shall be implemented by the Executive Body of the Society within its competence.
XI. Kuzatuv kengashi a'zolari va kotibiga haq to'lash tartibi	XI. Procedure for Remuneration of Members and the Secretary of the Supervisory Board
11.1. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolariga ular o'z vazifalarini bajarayotgan davrda asosiy (qat'iy belgilangan) va qo'shimcha mukofot puli (Kuzatuv kengashi qo'mitalari uchun) olishga xaqli, davlat ulushi bo'yicha Kuzatuv kengashi a'zolari bundan mustasno.	11.1. Members of the Supervisory Board of the Society shall be entitled, during the period of performance of their duties, to receive basic (fixed) remuneration and additional remuneration (for participation in Supervisory Board committees), except for members appointed in respect of the state share.
11.2. Kuzatuv kengashi mustaqil a'zolariga asosiy (qat'iy belgilangan) haq Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 31 iyuldagi 464-sonli qarorida belgilangan miqdorda barcha soliqlar va majburiy ajratmalar chegirib tashlangan holda chorak yakunidan keyingi bir oy ichida haq to'lanadi.	11.2. Basic (fixed) remuneration for independent members of the Supervisory Board shall be paid within one month following the end of the reporting quarter in the amount established by Resolution No. 464 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated 31 July 2024, net of all applicable taxes and mandatory contributions.
11.3. Davlat ulushi bo'yicha tayinlangan Kuzatuv kengashi a'zolariga Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan mukofot puli tayinlanishi mumkin.	11.3. Members of the Supervisory Board appointed in respect of the state share may be granted remuneration by a decision of the General Meeting of Shareholders subject to agreement with the Cabinet of Ministers.
11.4. Jamiyatning pul mablag'lari asosiy mukofotni to'lash manbai hisoblanadi.	11.4. The funds of the Society shall constitute the source of payment of basic remuneration.
11.5. Jamiyat faoliyatining zararsizligi Kuzatuv kengashiga haq to'lashning majburiy sharti hisoblanadi.	11.5. The absence of losses in the Society's activities shall be a mandatory condition for the payment of remuneration to the Supervisory Board.

11.6. Qat'iy belgilangan to'lov Kuzatuv kengash mustaqil a'zolariga ular tomonidan mazkur Nizomda nazarda tutilgan funknsional vazifalar lozim darajada bajarilganligi uchun to'lanadi.	11.6. Fixed remuneration shall be paid to independent members of the Supervisory Board for the proper performance of their functional duties as stipulated in this Regulation.
11.7. Kuzatuv kengashi a'zosi o'tgan chorakda Kuzatuv kengashi majlislarining yarmidan ko'pida ishtirok etmagan yoki unga yuklangan vazifalar va Kuzatuv kengashining ayrim topshiriqlari qoniqarsiz bajarilgan hollarda Kuzatuv kengashi a'zosining qat'iy belgilangan mukofot miqdori kamaytirilishi mumkin.	11.7. If a member of the Supervisory Board has attended less than half of the Supervisory Board meetings during the preceding quarter or has failed to properly perform assigned duties or specific tasks of the Supervisory Board, the amount of such member's fixed remuneration may be reduced.
11.8. Kuzatuv kengashi kotibiga har chorakda O'zbekiston Respublikasida belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 7 barobarida haq to'lanadi.	11.8. The Secretary of the Supervisory Board shall be paid quarterly remuneration in the amount of 7 times the minimum wage established in the Republic of Uzbekistan.
XII. Yakunlovchi qoidalar	XII. Final Provisions
12.1. Mazkur Nizom Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan sanadan e'tiboran kuchga kiradi.	12.1. This Regulation shall enter into force on the date of its approval by the General Meeting of Shareholders of the Society.
12.2. Agar mazkur Nizomni biron-bir qoidasi o'z kuchini yo'qotgan bo'lsa, bu qoida boshqa qoidalarni to'xtatish uchun sabab bo'lmaydi.	12.2. If any provision of this Regulation is found to be invalid, such invalidity shall not affect the validity or enforceability of the remaining provisions.
12.3. Agar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi yoxud Jamiyat ustavida mazkur nizomda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Jamiyat ustavi qoidalari qo'llaniladi.	12.3. In the event that the legislation of the Republic of Uzbekistan or the Charter of the Society establishes rules that differ from those set forth in this Regulation, the applicable legislation of the Republic of Uzbekistan and the provisions of the Charter of the Society shall prevail.
12.4. Ushbu Nizom aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan sanadan boshlab "Navoiyazot" AJ Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi avval tasdiqlangan Nizom (2026-yil 12-yanvarda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining 76-sonli qarori bilan tasdiqlangan) o'z kuchini yo'qotadi.	12.4. From the date of approval of this Regulation by the General Meeting of Shareholders, the previously approved Regulation on the Supervisory Board of "Navoiyazot" JSC (approved by the General Meeting of Shareholders on January 12, 2026, Resolution No. 76) shall become null and void.

"Navoiyazot" AJ boshqaruv raisi/v.b.



F.X. Samadov

Acting Chairman of the Management Board